

O'RTA TA'LIM MAKTABLARI ONA TILI DARSLARIDA KO'CHMA MA'NOLI SO'ZLARNI O'RGATISH.

Dilshoda Nizomova Nodirbek qizi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Leksikologiya bo'limining mavzularidan biri ko'chma ma'noli so'zlar ya'ni ko'chimlarni umumta'lim maktablarida o'qitish bo'yicha umumiy ma'lumotlar va metodik tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: leksikologiya, ko'chma ma'no, Venn diagrammasi, ma'nolabirinti, ibora va ko'chim.

Kirish.

O'rta ta'lim maktablarida ona tili darslarida "Leksikologiya" bo'limini o'qitish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni boyitish va rivojlantirish, ularning so'z boyligini oshirish vazifasini bajaradi. Leksikologiya (yunoncha Lexis - so'z, logos — fan, ta'limot) so'z haqidagi fan bo'lib (uni o'zbek tilida so'zshunoslik deb ham atashadi), muayyan tilda ishlatiladigan barcha so'zlar shu tilning lug'at boyligini tashkil qiladi. Tilshunoslikning bu bo'limi so'z va uning ma'nolarini o'rganish bilan shug'ullanadi.¹ Shu sababli leksikologiya o'quvchi leksikasini boyitishda katta imkoniyatlarga ega. Leksikologiya bo'limida so'zning grammatik hamda lug'aviy, o'z va ko'chma ma'nolari, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, ma'no ko'chish usullari, sinonim (ma'nodosh), uyadosh, antonim(zid ma'noli), omonim(shakldosh), talaffuzi yaqin, ma'nosi farq qiluvchi — paronim so'zlar, umumxalq ko'p va kam ishlatadigan, tarixiy, shevaga oid, yangi

¹ "O'zbek tili o'qitish metodikasi" B.To'xliyev., M.Shamsiyeva., T.Ziyodova. Toshkent -- 2006.


paydo bo‘lgan va eskirgan, kasb-hunarga oid so‘zlar, ibora va tasviriy ifodalar kabi mavzular bilan tanishiladi.

Ushbu bo‘limdagi “So‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nosi” mavzusi ta‘limi o‘quvchilar duch keladigan murakkabliklardan biri. Ushbu mavzuni 11-sinf darsligida “Ko‘chimlar” termini bilan, tilshunoslikning ba‘zi manbalarida esa “Hosila ma‘no” termini bilan uchratishimiz mumkin. So‘zlarni ko‘chma ma‘noda qo‘llash nutq ifodaliligini ta‘minlash uchun xizmat qiladi va deyarli barcha holatlarda ko‘chma ma‘no emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik hosil qilish maqsasida ishlatiladi.²

Endi ushbu mavzuni mustahkamlash uchun metodlardan foydalanish mavzularni yanada yaxshiroq tushunish va tushunganini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

1-topshiriq. “Venn diagrammasi” orqali so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma‘nolarini farqlay olishi uchun qo‘llash mumkin.

Masalan: Quloq so‘zi. O‘z ma‘nosida-odamning qulog‘i. Ko‘chma ma‘noda-qozonning qulog‘i.



Metodning maqsadi va foydali jihati. Ushbu metod orqali vizual tarzda taqdim etilgan ma‘lumotlar (matnli ma‘lumotlarga qaraganda) o‘quvchilar tomonidan osonroq qabul qilinadi va eslab qolinadi. Venn diagrammasi ma‘lumotlar o‘rtasidagi aloqalarni bir

² O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma”(11-sinf ona tili darsligi bo‘yicha).SAODAT ATOYEVA, SHAHODAT SHAHOBIDDINOVA, SAIDA MAJIDOVA, GULNORA YO‘LCHIYEVA, SOHIBA BOBONAZAROVA.

qarashda ko'rsatib beradi. Bu metoddan murakkab tushunchalar va ma'lumotlar to'plamlari orasidagi munosabatlarni sodda va tushunarli tarzda aks ettirishda qo'llaniladi. Har bir doira alohida to'plamni ifodalaydi, kesishgan joylar esa ularning umumiy xususiyatlarini ko'rsatadi. Bu esa ma'lumotlarni tezroq tushunishga yordam beradi. Metoddan guruhlar kesimida ham individual tarzda ham foydalanish mumkin.

2-topshiriq. “Kim ko‘chma kim haqiqiy?” metodi. Jadvaldagi gaplar ro‘parasida qaysi usul orqali ko‘chma ma’no hosil bo‘layotgani yozing.

1.	Samalyotning qanoti.	
2	Shirin qovun.	
3	Dasturxonga o'ting.	
4	Eshikka kiring.	
5	Og'ir turmush.	
6	O'tkir pichoq.	
7	Butun zal oyoqqa turdi.	
8	Besh qo'l barobar emas.	

Metodning maqsadi va foydali jihati. Ushbu metod nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar orqali mustahkamlashga imkon beradi. O'quvchilar metafora, metonimiya, sinekdoxa, jonlantirish, mubolag'a, kinoya kabi ko'chma ma'no turlarini nazariy bilishdan tashqari, amaliyotda ham ularni aniqlashni o'rganishadi. Berilgan gaplardagi ma'no ko'chishini aniqlash mantiqiy tahlil qilish va bog'liqliklarni topishni talab qiladi. Jadval shakli esa ma'lumotlarni tartibli va ko'rgazmali tarzda taqdim etadi, bu esa tushunishni osonlashtiradi.

Ko‘chimlarni iboradan farqlash. Iboralar ma’nosi bir so‘z yoki so‘z birikmasiga teng keladi, ko‘chma ma’noli so‘zlarda esa ma’nosi izohlanmaydi. Ko‘chimlar o‘xshayotgan va o‘xshatilayotgan narsa va buyumlar orasida o‘xshashlik, bog‘liqlik bo‘ladi. Iboralarda esa ibora va uning ma’nosi o‘rtasida bunday hodisalar kuzatilmaydi.

3-topshiriq. “Ma’no labirinti” Berilgan so‘zlarni ham ko‘chim ham ibora ma’nosida qo‘llang. (Quyidagi so‘zlarga o‘qituvchi qo‘shimcha qilishi mumkin.)

Quloq, burun, ko‘ngil, og‘iz, peshona, qo‘l, yurak.

Masalan: tandirning og‘zi- ko‘chma ma’no, og‘zi qulog‘ida- ibora

Metodning maqsadi va foydali jihati. Ushbu metodning asosiy maqsadi o‘quvchilarda so‘zlarning ma’no qatlamlarini chuqur anglash ko‘nikmasini shakllantirish. Qolaversa bu metod o‘quvchilarning so‘zlardan turli kontekstlarda o‘rinli va ta’sirchan foydalanish qobiliyatini oshiradi. Bu esa ularning og‘zaki va yozma nutqining boy, obrazli va ifodali bo‘lishiga xizmat qiladi. So‘zning turli ma’nolarini bir vaqtning o‘zida ko‘rib chiqish, o‘quvchilarga tilning murakkab va ko‘p qirrali tizim ekanligini anglashga yordam beradi. Bu ularning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va tilning nozikliklarini tushunishga undaydi. O‘quvchilar ko‘chma ma’noli so‘zlar va iboralardan qanday foydalanishni bilib olganlaridan so‘ng, ularning kundalik va ilmiy nutqi yanada boy, rang-barang va jozibali bo‘ladi. Bu ularning og‘zaki va yozma muloqot qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

4-topshiriq. “Yashirin so‘z o‘yini” berilgan jumlalarda yashiringan ko‘chimlarni toping. Bunda o‘qituvchi o‘zi xoxlagan ko‘chimlarni izohlaydigan gap va birikmalar aytadi ammo birikmaning o‘zi ishtirok etishi mumkin emas.

Masalan: Bu so‘z odamning qo‘li bilan bog‘liq bo‘lib, asosan mehnatkash, mohir yoki hunarmand odamlarga aytiladi. (oltin qo‘l yoki qo‘li gul)

Metodning maqsadi va foydali jihati. O‘quvchilar berilgan ta’rifga mos ko‘chmani topish uchun faol tahlil qilishlari va mantiqiy bog‘lanishlarni izlashga majbur bo‘ladilar. O‘yin shakli o‘quvchilarda tezkor qaror qabul qilish va topqirlik qobiliyatini

rivojlantiradi. Bu metod o'quvchilarni tildagi yashirin "xazinalarni" kashf etishga undaydi va ularga tilning naqadar boy va jonli ekanligini his qildiradi.

5-topshiriq. Ko'chma ma'noli so'zlar qatnashgan ijodiy hikoya tuzish. Buni ikki xil usulda qo'llash mumkin. 1. O'qituvchi o'zi bir nechta ko'chimlardan namunalar beradi o'quvchilar o'sha so'zlarni qatnashtirib hikoya tuzishi zarur. Berilgan barcha so'zlarni qo'llab eng yaxshi hikoya tuzgan o'quvchi taqdirlanadi. (Bunda o'quvchilarni ko'proq fikrashga undaydi. Har bir ko'chimni o'z o'rnida qo'llash uchun ko'proq mahorat talab etiladi.) 2. O'qituvchi tomonidan mavzu beriladi. O'quvchilar shu mavzuda hikoya tuzadi va unda xoxlagancha ko'chim qo'llashi mumkin. Eng ko'p ko'chim qo'llay olgan o'quvchi g'olib bo'ladi. (Albatta, har bir ko'chim o'z o'nida va ma'ntiqiy jihatdan kontekstga mos bo'lishini ham inobatga olish zarur.)

Metodning maqsadi va foydali jihati. O'quvchilarni yangi va noan'anaviy so'z birikmalari bilan tanishtirish orqali ularning lug'at boyligini kengaytirish, erkin fikrlashga, tasavvurdan foydalanishga va o'ziga xos iboralar yaratishga undash. Odatda ko'chimning mohiyatini tushunish va ularni o'rinli ishlatish mantiqiy bog'liqliklarni topishni talab qiladi. An'anaviy grammatika mashqlaridan ko'ra, hikoya tuzish va ijodiy yondashuv o'quvchilarni ko'proq jalb qiladi. Qolaversa, oddiy lug'aviy ma'noni yodlashdan ko'ra, kontekstda ko'chma ma'noni tushunish o'quvchining idrokini rivojlantiradi.

Xulosa: So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash nutq ifodaliligini ta'minlash uchun muhim manba hisoblanadi. Sababi, nutqiy holatda emotsional-ekspressivlikni ifodalashda ko'chimlarning o'рни kattadir. Umumta'lim maktablarida ushbu mavzu leksikologiya bo'limida o'rgatiladi, va ular o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda va leksik boyligini oshirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Biroq, ko'chimlar mavzusini to'g'ridan to'g'ri o'rgatish biroz mushkulroq. Shu sababli, ushbu mavzuni qiziqarli metodlar orqali tushuntirish yaxshiroq natija beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar.

1. “O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma”(11-sinf ona tili darsligi bo‘yicha).SAODAT ATOYEVA, SHAHODAT SHAHOBIDDINOVA, SAIDA MAJIDOVA, GULNORA YO‘LCHIYEVA, SOHIBA BOBONAZAROVA. 88-bet.
2. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” B.To‘xliyev., M.Shamsiyeva., T.Ziyodova. Toshkent -- 2006.
- 3.”O‘ZBEK TILIDA MA’NO KO'CHISH USULLARI: METAFORA, METANOMIYA, SINEKDOXA, VAZIFADOSHLIK”. (maqola). S.Shermamatova, Nilufarxon Sobirova, Zeboxon Nazirova.
4. “Ona tilini o‘qitish metodikasi”. A. G‘ulomov va boshqalar. Toshkent -- 2012.